XALQ DEPUTATLARI BANDIXON TUMANI KENGASHINING QARORI

Bandixon tumani Bektepa mahallasi mustaqillik ko`chasi 1-uy,tel.:(94) 264 19 60

2022 - yil 1 - dekabr VI-53-140-8-211-K/22 Bandixon tumani hokimligi

Bandixon tumani mahalla fuqarolar yig‘inlaridagi ayrim ko‘chalarning nomlarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq “Geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha tuman komissiyasining 2022-yil 2-iyundagi 15-01/91-sonli yig‘ilish bayoni, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2022-yil 26-avgustdagi 18-01/235-sonli yig‘ilish bayoni hamda “Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida” 2022-yil 26-sentabrdagi 00663-sonli Respublika Kadastr agentligining davlat ekspertizasi xulosasini ko‘rib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 6-moddasiga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha tuman komissiyasi raisi O‘.Choriyevning tumandagi ayrim Geografik obyektlarning nomlarini tasdiqlash to‘g‘risidagi doimiy komissiyaga bergan hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman komissiyasining 2022-yil 2-iyundagi 15-01/91-sonli yig‘ilish bayoni, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2022-yil 26-avgustdagi 18-01/235-sonli yig‘ilish bayoni hamda “Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida” 2022-yil 26-sentabrdagi 00663-sonli Respublika Kadastr agentligining davlat ekspertizasi xulosasi inobatga olinsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2022-yil 26-sentabrdagi 00663-sonli yig‘ilish bayoni va 00663-sonli Davlat ekspertizasi xulosasiga asosan tumandagi 64 ta ko‘cha va 1ta qabristonni nomlash

bo‘yicha berilgan ekspertiza xulosasi O‘zbekiston Respublikasi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunining 4-moddasiga muvofiq deb hisoblanganligi inobatga olinsin hamda shu geografik obyektlarning nomlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Kadastrlar palatasi viloyat boshqarmasi Bandixon tuman filiali (X.Allamuratov), tuman Qurilish bo‘limi (I.Beknazarov) birgalikda o‘zgartirish kiritilayotgan ko‘cha nomlarining kartografiya va ma’lumotnoma nashrlarini tayyorlasinlar hamda chegaralarini aniqlab, 2022-yil noyabr oyining oxiriga qadar Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasiga taqdim etsin.

5. Tuman Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (T.Shayqulov) va tuman Ichki ishlar bo‘limi (A.Berdinazarov) tegishli mahalla fuqarolar yig‘inlari raisi bilan birgalikda ayrim geografik obyektlar (ko‘chalar va qabriston nomlari)ning nomlari tasdiqlanganligi sababli fuqarolarning fuqarolik pasportlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ishlarining tashkiliy ravishda bosqichma-bosqich amalga oshirilishi yuzasidan ta’sirchan chora-tadbirlarni belgilasin.

6. Tuman Statistika bo‘limi(O‘.Raxmatov) tegishli mahalla fuqarolar yig‘inlari hududida nomlari tasdiqlangan, nomlangan ayrim ko‘cha nomlarini inobatga olgan holda statistik ma’lumotlarga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritsin.

7. Tuman Qurilish bo‘limi (I.Beknazarov), tuman Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (T.Shayqulov) va tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (A.Mamatqulov)ga nomlari tasdiqlangan ayrim geografik obyektlar nomlarini yangi nomlari yozilgan ko‘rsatkich, belgilar, peshlavhalarning bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin, shuningdek, obodonlashtirish hamda ko‘kalamzorlashtirish ishlarini tashkil etsin.

Belgilansinki xarajatlar mahalliy byudjet, homiylik hamda qonunchilikda ta’qiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan belgilangan tartibda moliyalashtiriladi.

8. Belgilab qo‘yilsinki, tasdiqlangan geografik obyektlar nomlari tuman hududida to‘g‘ri va to‘liq yuritilishi shart.

9. Tuman hokimligi axborot xizmati (M.Yunusov), “Yangi Bandixon” gazetasi tahririyati (A.Rajabov)ga nomlari tasdiqlangan, nomlangan ayrim geografik obyektlar to‘g‘risida ma’lumotlarni ijtimoiy tarmoqlarga yoritish tavsiya etilsin.

10. Tumanda geografik obyektlarni nomlash bo‘yicha mavjud 65 ta (64 ta ko‘cha, 1 ta qabriston) geografik obyektning nomlari Respublika Kadastr agentligi ekspertiza komissiyasi tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq deb topilganligi inobatga olinib, ushbu 65 ta (64 ta ko‘cha, 1 ta qabriston) geografik obyektning ro‘yxati Xalq deputatlari tuman Kengashi qarori asosida Respublika Kadastr agentligining davlat reyestri elektron bazasiga kiritish maqsadida viloyat hududiy komissiyasiga taqdim etilsin.

11. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (B.Alimnazarov) zimmasiga yuklatilsin.

12. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **O'.Choriyev**

Xalq deputatlari Bandixon tuman Kengashining
2022 yil 1 dekabrdagi
VI-53-140-8-211-K/22-son qaroriga
1-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Respublika Kadastr agentligi tomonidan ekspertiza xulosasi berilgan Bandixon tumanidagi mavjud geografik obyektlar

ro‘yxati

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman va viloyat komissiyasi tomonidan berilgan takliflar	Respublika Kadastr agentligi ekspert komissiyasi xulosasi
1	2	3	4	5	6
1.	Ko‘cha	“Bandixon” MFY	Nomsiz	Tohir Malik	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
2.	Ko‘cha	“Bektepa” MFY	Nomsiz	Oybek	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
3.	Ko‘cha	“Bektepa” MFY	Nomsiz	Muhammad Yusuf	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
4.	Ko‘cha	Farovon MFY	Nomsiz	Hur diyor	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
5.	Ko‘cha	Farovon MFY	Nomsiz	Istiqbol	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
6.	Ko‘cha	Farovon MFY	Nomsiz	Yorqin hayot	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
7.	Ko‘cha	Farovon MFY	Nomsiz	Bog‘u-bo‘ston	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
8.	Ko‘cha	Farovon MFY	Nomsiz	Nurli yo‘l	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
9.	Ko‘cha	Farovon MFY	Nomsiz	Kamolot	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
10.	Ko‘cha	Farovon MFY	Nomsiz	Oltin zamin	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
11.	Ko‘cha	Farovon MFY	Nomsiz	Serquyosh	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
12.	Ko‘cha	“Navbahor”MFY	Nomsiz	Yashnabod	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
13.	Ko‘cha	“Navbahor”MFY	Nomsiz	Zafarobod	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
14.	Ko‘cha	“Polvontosh”MFY	Nomsiz	Ko’hinur	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
15.	Ko‘cha	“Polvontosh”MFY	Nomsiz	Zamin yulduzi	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
16.	Ko‘cha	“Polvontosh”MFY	Nomsiz	Ishbilarmonlar	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman va viloyat komissiyasi tomonidan berilgan takliflar	Respublika Kadastr agentligi ekspert komissiyasi xulosasi
17.	Ko‘cha	“Navro‘z”MFY	Nomsiz	Faollar	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
18.	Ko‘cha	“Navro‘z”MFY	Nomsiz	Saxovat	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
19.	Ko‘cha	“Navro‘z”MFY	Nomsiz	Obodon	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
20.	Ko‘cha	“Navro‘z”MFY	Nomsiz	Abadiyot	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
21.	Ko‘cha	“Navro‘z”MFY	Nomsiz	Yagibog‘	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
22.	Ko‘cha	“Navro‘z”MFY	Nomsiz	Anhor	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
23.	Ko‘cha	“Navro‘z”MFY	Nomsiz	Intilish	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
24.	Ko‘cha	“Navro‘z”MFY	Nomsiz	Kunchiqar	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
25.	Ko‘cha	“Xo‘jaipok”MFY	Nomsiz	Ma’rifat gulshani	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
26.	Ko‘cha	“Xo‘jaipok”MFY	Nomsiz	Osiyo	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
27.	Ko‘cha	“Xo‘jaipok”MFY	Nomsiz	Imom al-Buxoriy	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
28.	Ko‘cha	“Xo‘jaipok”MFY	Nomsiz	Toshkent	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
29.	Ko‘cha	“Xo‘jaipok”MFY	Nomsiz	Zilol	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
30.	Ko‘cha	“Xo‘jaipok”MFY	Nomsiz	Sharq yulduzi	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
31.	Ko‘cha	“Xo‘jaipok”MFY	Nomsiz	Turkiston	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
32.	Ko‘cha	“Obod turmush” MFY	Nomsiz	Orombaxsh	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
33.	Ko‘cha	“Obod turmush” MFY	Nomsiz	Hurlik	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
34.	Ko‘cha	“Obod turmush” MFY	Nomsiz	Zulfiya	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
35.	Ko‘cha	“Obod turmush” MFY	Nomsiz	Yangi O‘zbekiston	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman va viloyat komissiyasi tomonidan berilgan takliflar	Respublika Kadastr agentligi ekspert komissiyasi xulosasi
36.	Ko‘cha	“Obod turmush” MFY	Nomsiz	Behizor	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
37.	Ko‘cha	“Obod turmush” MFY	Nomsiz	Avlod	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
38	Ko‘cha	“Obod turmush” MFY	Nomsiz	Shukrona	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
39.	Ko‘cha	“Obod turmush” MFY	Nomsiz	Hunarmandlar	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
40.	Ko‘cha	“Obod turmush” MFY	Nomsiz	Obodturmush	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
41.	Ko‘cha	“Obod yurt” MFY	Nomsiz	Tengdoshlar	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
42.	Ko‘cha	“Obod yurt” MFY	Nomsiz	Mirishkor	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
43.	Ko‘cha	“Obod yurt” MFY	Nomsiz	Nurliyo‘l	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
44.	Ko‘cha	“Obod yurt” MFY	Nomsiz	Tong yulduzi	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
45	Ko‘cha	“Obod yurt” MFY	Nomsiz	Yakkatepa	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
46.	Ko‘cha	“Obod yurt” MFY	Nomsiz	Muruvvat	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
47.	Ko‘cha	“Obod yurt” MFY	Nomsiz	Qadriyat	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
48.	Ko‘cha	“Obod yurt” MFY	Nomsiz	Yangi asr	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
49.	Ko‘cha	“Zevar” MFY	Nomsiz	Gulshan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
50.	Ko‘cha	“Birdamlik” MFY	Nomsiz	Fitrat	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
51.	Ko‘cha	“Birdamlik” MFY	Nomsiz	Mardlik	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
52.	Ko‘cha	“Birdamlik” MFY	Nomsiz	Abdulla Qodiriy	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
53.	Ko‘cha	“Birdamlik” MFY	Nomsiz	Nizomiy	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman va viloyat komissiyasi tomonidan berilgan takliflar	Respublika Kadastr agentligi ekspert komissiyasi xulosasi
54.	Ko‘cha	“Birdamlik” MFY	Nomsiz	Ipk yo‘li	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
55.	Ko‘cha	“Birdamlik” MFY	Nomsiz	Salomatlik	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
56.	Ko‘cha	“Birdamlik” MFY	Nomsiz	Zafaron	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
57.	Ko‘cha	“Birdamlik” MFY	Nomsiz	At-Termiziy	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
58.	Ko‘cha	“Birdamlik” MFY	Nomsiz	Usmon Nosir	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
59.	Ko‘cha	“Birdamlik” MFY	Nomsiz	Furqat	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
60.	Ko‘cha	“Birdamlik” MFY	Nomsiz	Abdulla Avloniy	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
61.	Ko‘cha	“Birdamlik” MFY	Nomsiz	Jasorat	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
62.	Ko‘cha	“Birdamlik” MFY	Nomsiz	Hur vatan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
63.	Ko‘cha	“Birdamlik” MFY	Nomsiz	Lutfiy	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
64.	Ko‘cha	“Birdamlik” MFY	Nomsiz	Uvaysiy	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
65.	Qabriston	“Saroy” MFY	Nomsiz	Bahoriston	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.